

AMPROVET-25 EYMERIOSTATI JO‘JALAR EYMERIOZIDA SAMARALI VOSITA

Po‘latova Navbahor Muhammad qizi.

O‘qituvchi: **Xudjamshukurov A. N**

Samarqand Davlat Veterinariya meditsinasi,
Chorvachilik va Biotexnologiyalar universiteti

Izoh: Preparat bilan tovuqlarda eimeriozning oldini olish va davolashda amprovet-25 samaradorligi yuqori. Preparat qushlarning vaznini sezilarli darajada oshiradi va anti-eymerioz indeksi, eymeyria ootsistlarining ko‘payishini deyarli 4-5 marta kamaytiradi, yo‘q qushlar organizmida amerikaga qarshi immunitetning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, bu madaniyat bilan maxsus profilaktika uchun koksidiy foydalanish imkoniyatini ochadi.

Kalit so‘zlar: Eksperiment, amprovet-25, parranda, transovarial, alimantar, eymeriya, ootsist, intensivlik, invaziya, immunitet.

Mavzuning dolzarbligi: Parrandachilikda xavfli parazit kasalliklardan biri bo‘lgan eymeriozning besh turi Respublikamiz tovuqchilik xo‘jaliklarida tez-tez uchrab katta iqtisodiy zarar yetkazib kelmoqda, kasallik bilan asosan, yosh va o‘sovchi jo‘jalar kasallanib, ko‘pchiligi nobud bo‘lishi, qolganlari esa o‘shish va rivojlanishdan orqada qolishi kuzatiladi. Tuxum va Go‘sh t yo‘nalishidagi tovuqlarning mahsuldorlik hamda sifat ko‘rsatkichlari pasayadi.

Jo‘jalarda eymeriozni davolash va oldini olishda kimyoviy dori vositalari keng qo‘llanilib, ularning samaradorligini oshirish, turli sxemalarda qo‘llash, yangilarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish ishlari soha mutaxassislarining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [1; 2; 3; 4].

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan amprovet-25 preparati jo‘jalar eymeriozini davolashda qator tajribalar, uning samaradorlik ko‘rsatkichlari respublikamizning tovuqchilik xo‘jaliklarida kasallikni oldini olish hamda davolash maqsadida sinovdan o‘tkazilgan [2; 5].

Materiallar va usullar. Tajribalar o‘tkazish uchun “Ross-308” broyler zotiga mansub bir kunlik 60 bosh jo‘ja olib kelindi va ular eymerioz qo‘zg‘atuvchilari bilan yuqish ehtimolidan toza joyga toshamalar ustiga umumiy guruh qilib asraldi. Jo‘jalar 14 kunligida 15 boshdan qilib tirik vaznlari tarozida o‘lchanib 4 ta guruh tuzildi.

Birinchi- sog‘lom nazorat jo‘jalar guruhi bo‘lib xizmat qildi va tajriba oxirigacha preparatsiz oziqa bilan asraldi. Ikkinchi – guruh jo‘jalari esa kasallik qo‘zg‘atuvchilarining o‘ldirish dozasi ($O'D_{50-75}$) titrlangan va sporulyatsiyalangan ootsislari (*E. acervulina* – 200 ming, *E. maxima* – 15 ming, *E. tenella* – 40 ming dona 1 ml³ suspenziyada) shpris zond orqali har bir jo‘janing jig‘ildoniga 1 ml dan zararlantirilib, preparatsiz asraldi. Uchinchi – tajriba guruhi jo‘jalari 1ml³ kasallik qo‘zg‘atuvchilari bilan zararlantirilib birdaniga 10 kun davomida amprovet-25 eymeriostati 500 mg/kg oziqa bilan berib borildi. To‘rtinchi – tajriba guruhidagi jo‘jalar ham 1 ml³ miqdorida qo‘zg‘atuvchilar bilan zararlantirilgan kundan boshlab amprol plyus 500 mg/kg yemga 10 kun davomida qo‘llanmaga asosan berildi. Qo‘llanilgan eymeriostatlarning kasallikka qarshi samaradorlik ko‘rsatkichlari jo‘jalarning saqlanuvchanlik foiziga, tajriba oxiridagi bir bosh jo‘ja tirik vaznining o‘shish foiziga hamda eymeriozga qarshi indeksiga (EQI) qarab baholandi.

Tirik vaznning o‘shishi va EQI M.V.Kr‘lovning takomillashgan usulida aniqlandi. Qo‘llanilgan eymeriostatlarning kasallikka qarshi organizmda hosil bo‘ladigan immunitetga ta‘sir qilish ko‘rsatkichlari tajribaning 21- kuni sporulyatsiyalangan ootsislarning o‘ldiruvchi doza – $O'D_{100}$ dozasi bilan qayta yuqtirish orqali aniqlandi. Invaziyaning intensivligi tajribaning 5, 7, 10, 15 va 20 - kunlari aniqlandi [6;7].

Olingan natijalar va ularning tahlili. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, Ikkinchi –yuqtirilib davolanmagan qiyosiy nazorat guruhidagi jo‘jalarning saqlanuvchanligi 46% ni, bir bosh jo‘ja tirik vaznining o‘shishi o‘rtacha

37,1 % ni va EQI – 55,0 ballda aniqlandi. Uchinchi – tajriba guruhidagi jo‘jalar amprovet-25 eymeriostati 500 mg/kg oziqa bilan 10 kun davomida qo‘llanilganida eymeriozdan 100% gacha saqlanib, tirik vaznning o‘shishi 139,8% ga va EQI 196,5 ballga tengligi aniqlandi. To‘rtinchi – tajriba guruhi jo‘jalariga amprol plyus eymeriostati qo‘llanilganda saqlanuvchanlik 100% gacha bo‘lib, tirik vazn o‘shishi 137,1% ni, EQI esa 190,2 ballni qayd etdi.

Jo‘jalar eymeriozida eymeriostatlar samaradorligi

Jadval № 1

T/r	Guruh nomi	Preparat nomi	Preparat miqdori (mg/kg oziqa bilan)	Jo‘jalar bosh soni	Saqlanishi (%)	Tirik vazn o‘shishi (%)	EQI (ball)
1	Sog‘lom nazorat	-	-	15	100	145,5	200
2	Zararlantirib davolanmagan qiyosiy nazorat	-	-	15	46	37,1	55,0
3	Tajriba	Amprovet-25	500	15	100	139,8	196,5
4	Tajriba	Amprol plyus	500	15	100	137,1	190,2

Invaziyaning intensivlik darajasini bilish uchun tajribaning 5, 7, 10, 15 va 20-kunlari 1 gramm axlatdagi ootsistalar soni Goryaev sanoq to‘rida sanash orqali aniqlanganda eng maksimal ootsistlar reproduksiyasi tajribaning 5 va 7- kunlari ikkinchi qiyosiy yuqtirilib davolanmagan guruh jo‘jalari axlatida kuzatildi ya’ni 5- kun 1,117 ming, 7- kun 1,914 ming, 10-kun 255 ming, 15-kun 44 ming va 20- kuni 4 ming nusxa ootsistlar tashqi muhitga ajraldi.

Xulosa. Jo‘jalar eymeriozida amprovet-25 eymeriostatini samaradorligi yuqori bo‘lib, jo‘jalarni kasallikdan saqlanuvchanlik darajasi - 100% ni qayd etdi, kasallikka qarshi organizmda hosil bo‘ladigan immunitetga salbiy ta’sir qilmaydi va invaziya intensivlik darajasini 4-5 barobarga kamaytirdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib amprovet-25 eymeriostatini 500 mg/kg oziqa bilan 10 kun davomida berib eymeriozdan profilaktika qilish maqsadida broyler va naslchilik parrandachilik xo‘jaliklarida kimyo va immunokimyoprofilaktika maqsadida qo‘llash mumkinligi e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Davlatov R.B, Xudjamshukurov A.N. “Jo‘ja eksperimental eymeriozida qo‘llanilgan eymeriostatlar”, International scientific-practical online conference on “Emergency management and public health research in asia” – ISBN: 978-83-956810-3-5/ may 23, 2020.

2. Davlatov R, Ruzikulov N, Xudjamshukurov A.N. “Comparative efficacy of anticoccidic preparations in experimental eimeriosis in fowl”, International Journal of Applied Research 2018, № 4 (7): 319-321 Research Journal Delhi, India.

3. R.B.Davlatov, Xudjamshukurov A.N. “Eksperimental tovuq eymeriozida sinovdan o‘tkazilgan preparatlar samaradorligi”, Toshkent davlat agrar universiteti “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligi sohasi samaradorligini oshirishda ilmiy tadqiqot institutlari va oliy ta’lim muassasalarining rolini oshirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami/ 2-kitob 22-23 fevral 2018 yil. 7-9 betlar.

4. Xudjamshukurov A.N. “Improvement Of Chemoprophylaxis Of chicken Eimeiosis” .Nat.Volatiles & Essent. Oils, 2021;8(6): 884-887.

5. Xudjamshukurov A.N., Xo‘jaxonov Sh. “Effests of drugs on blood indicators in mixing chicken eimeriosis and pullorosis”, ACADEMICIA An International

Multidisciplinary Research Journal// [https:// saarj.com](https://saarj.com), Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 // Vol.11,Issue 5, May 2021.

6. Разбицкий В.М. и др. “Никарбазин препарат для профилактики кокцидиозов бройлеров и ремонтного молодняка кур”. Болезни птиц в промышленном птицеводстве. Современное состояние проблемы и стратегия борьбы. Ст. Петербург –2007. С. 282-285.

7. Хованских А.Е. и др. “Кокцидиоз сельскохозяйственных животных”. Ленинград. ВО, Агропромиздат. 1990. С. 16-108.

8. Mirsaidova, R., & Abdullaev, S. (2021). Vaccinal function of pathogenic bacteria in chickens inactivated with antibiotics in immunoprophylaxis of salmonellosis in industrial poultry.

